



Date: 15 June 2026

ILOHIY KITOB, HADISLARDA DEHQON OBRAZI VA DEHQONCHILIK TALQINI

To'rayeva Laylo Omonovna
Buxoro davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası dotsenti, f.f.f.d.(PhD)
E-mail: L.o.turayeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola Qur'oni Karim va hadislarida dehqonchilik va dehqon obrazining o'rni, ahamiyati hamda ma'naviy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada dehqonchilikning nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, uning inson tarbiyasidagi o'rni, ilohiy ne'matlar sifatidagi qiymati tahlil qilingan. Dehqonning Allohning yer yuzidagi xalifasi sifatidagi maqomi va bu maqomning ilohiy kitoblarda aks ettirilganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Qur'on, hadis, dehqon, dehqonchilik, ilohiy kitob, ma'naviyat, islom iqtisodiyoti, yer xalifaligi, sabr, shukr, tabiat, hosil, ma'naviy tarbiya.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению места, значения и духовных аспектов образа земледельца и земледелия в Коране и хадисах. В статье анализируется не только экономическое, но и духовно-нравственное значение земледелия, его роль в воспитании человека, ценность как божественного благословения. Освещены статус земледельца как наместника Аллаха на земле и практические проявления этого статуса.

Ключевые слова: Коран, хадис, земледelec, земледелие, божественная книга, духовность, исламская экономика, наместничество на земле, терпение, благодарность, природа, урожай, духовное воспитание.

Annotation: This article is devoted to the study of the place, significance and spiritual aspects of the image of the farmer and agriculture in the Quran and hadiths. The article analyzes not only the economic but also the spiritual and moral significance of agriculture, its role in human education, and its value as a divine blessing. The status of the farmer as Allah's vicegerent on earth and the practical manifestations of this status are highlighted.

Keywords: Quran, hadith, farmer, agriculture, divine book, spirituality, islamic economics, vicegerency on earth, patience, gratitude, nature, harvest, spiritual education.

Islom dini inson hayotining barcha jihatlarini, shu jumladan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni ham o'z ichiga olgan barqaror ta'limotdir. Islomda mehnat va kasb-hunarlariga, ayniqsa, kishilik jamiyatini boyitadigan dehqonchilikka alohida e'tibor





qaratilgan. Ushbu maqolada Qur'oni Karim va hadislar asosida dehqon obrazining talqini, uning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati yoritiladi.

Qur'oni Karimning juda ko'p o'rinlarida dehqonchilik va yer mahsulotlariga ta'rif keltirilgan. Unda Alloh taolo insonga beradigan ne'matlar sirasida yer mahsulotlarining bebaholigi ta'kidlanib tez-tez zikr qilinadi. Yerning hosildorligi, undan foydalanish usullari ilohiy mudrakning namoyoni sifatida keltiriladi.

Ziroatchilik, ya'ni dehqonchilik haqidagi ilohiy oyatlarda insonning shukur qilishi va Yaratganga imon keltirishi uchun, in'om etilgan ne'matlar sifatida talqin qilinadi. "U sizlar uchun Yerni poyandoz, osmonni "bino" qilib qo'ydi va osmondan suv yog'dirib, u sababli sizlarga rizq sifatida mevalar(mevali daraxtlarni undirdi. Bas, bilib turib Allohga ibodatda boshqalarni, soxta ma'budlarni tenglashtirmangiz" (Qur'oni Karim, 2-sura, 22-oyat). Oyatda Yer va uning meva-chevalarni yerdan undirilishi ibodat qilish uchun munosib bo'lgan yagona Zot – Allohning qudrati dalili sifatida ko'rsatiladi.

Yerning tirilish manbai bo'lgani to'g'risida quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Biz osmondan barakotli suv(yomg'ir) yog'dirib, u bilan bog'larni va o'rib olinadigan donlarni undirdik" (Qur'oni Karim, 50-sura, 9-oyat). Yerning o'lik holidan jonli nabototlarning chiqarishi Oxirat kunida qayta tirilish (hashr) uchun misol bo'lib xizmat qiladi. Dehqon har bir mavsumda bu "qayta tirilish" jarayoniga guvoh bo'ladi. Go'yoki, Yaratuvchining amallarini dildan his qiladi. Bu dehqonlarning Tangri oldidagi mavqeining baland ekanligini ko'rsatuvchi ilohiy bashorat sifatida ko'zga tashlanadi.

Dehqonlar ta'rifi Qur'oni Karimdan keyin Hadisi Shariflarda ham davom ettiriladi. Ularda dehqon va uning fazilatlarini, ularning Alloh himoyasidagi buyuk inson sifatida ulug'lanadi.

Payg'ambarimiz Muhammad rasulolloh salallohi alayhivassallam tomonlaridan aytilgan muborak kalomlar yillar davomida hadislariga aylanib, insonlarning islomiy qarashlari va tushunchalarini kengaytirib kelmoqda. Bu hadislarida dehqonchilikka bo'lgan hurmat va uning ijtimoiy ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Dehqon jamiyatning eng muhim vakillaridan sanaladi. Shuning uchun hech bir ish ularning aralashuvisiz mukammal bo'la olmaydi. Chunki tiriklik manbai dehqonlar yetishtirgan ne'matlar tufaylidir. Ularning mana shu mas'uliyati va mehnati hadislarida o'ziga xos tarzda ta'rif etiladi.

"Qachon bir musulmon bir daraxt ekar yoki qishloq xo'jaligi ekinlarini eksa, bas, uning hosilidan ozuqalangan kishi yoki jonivor uchun sadaqa yozilur" (Sahihi Muslim, "Kitobu-l-musaqoh"). Bu hadisda dehqonchilik faoliyati faqat uning o'zi uchun emas, balki butun jamiyat, hatto har bir jonzot uchun foydali va savobli ish ekanligi ta'kidlanadi.





“Birov ekin ekkach, natijada dehqon hosil olsa, Alloh unga sadaqa ajr-savobini beradi. Undan o’g’ri yoki ayol-hayvon bahramand bo’lsa, bu ham uning uchun sadaqa bo’lur” (Sahihi Buxoriy, “Kitobu-l-muzoroa”). Bu hadis dehqonning mehnati natijasiga nisbatan ijobiy niyat va sabr-matonat ulug’lanadi. Uning halol mehnati hamisha ajr va savoblarga munosib ekanligi to’g’risida bashorat qilinadi.

Rasululloh (s.a.v.): “Biror kishi yetilmagan hosilini olsa, biz uning uchun baraka yaratamiz. Kimki mo’l-ko’l hosil olsa, u o’z jon-jahdi va mehnati samarasini olgan bo’ladi” (“Muxtasar” Sahih Muslim). Bu esa, dehqonchilikda ham adolat va saxiylik tamoyillariga rioya qilish lozimligiga ishora beradi.

Hadis va oyatlarda ta’riflanishicha, Dehqon – Allohning yerdagi xalifasi. Birinchi yaratilmish inson – Odam Ato dastavval dehqonchilik kasbi bilan qurollantirilgan. Dehqonchilikning kelib chiqishi xalq afsonalarida Odam Ato nomi bilan bog’lab talqin qilinadi. Jumladan, Odam Ato va Momo Havoning Qain va Havel ismli ikki o’g’li bo’lib, biri dehqon, biri cho’pon bo’lgan ekan. Bir kuni dehqon Qain yerdan yetishtirgan mahsulotlaridan, cho’pon Havel esa qo’y dumbalaridan Xudovandaga hadya qilibdi. Xudovanda Havelni va uning hadyasini manzur ko’rgan, ammo akasining hadyasi Havelga manzur bo’lmagan. Bunday holat Qainning yuragida ukasiga qarshi hasad va nafrat uyg’otibdi. Bir kuni aka-ukalar dashtda bo’lganlarida Qain Havelni o’ldiradi.

Ushbu diniy afsona syujeti orqali dehqonchilikning chorvachilikni asta-sekin siqib chiqarib, unga nisbatan keng yoyila boshlaganini anglash mumkin.

Islom ta’limotiga ko’ra, inson Allohning Yerdagi xalifaligi maqomi isonning tabiat va uning boyliklariga mas’uliyat bilan munosabatda bo’lishini taqozo etadi. Dehqon bu masalada eng yaqin misoldir. U yerni haydaydi, sug’orish tizimlarini quradi hosil unumdorligini oshiradi. Biroq u bu ishlarni tabiatni yo’q qilish yo’li bilan emas, balki uning muvozanatini saqlab, Allohning amr-farmonlariga amal qilish orqali amalga oshirsa baraka topadi.

Dehqonchilik faoliyati inson tarbiyasida muhim o’rin tutadi. U sabr-qanoat, tavakkal, ilojsizlikda ishonch va shukr kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Har bir ekin o’z vaqtida unmaydi, har bir hosil o’z paytida pishmaydi. Bu insonga hayotda vaqt va taqdir oldida sabr qilishni o’rgatadi. Shuningdek, ko’pgina oyat va hadislarida yer mahsulotlariga shukr qilish targ’ib qilinadi, ya’ni dehqon o’z mehnati natijasida olgan ne’matlarga shukrona keltira olishi kerak. Aks holda ko’p isrofgarchilikka yo’l qo’yib, tabiatning kushandasiga aylanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Islom dinida dehqon obrazi faqatgina iqtisodiy faollikni ifodalovchi kasb emas, balki yuksak ma’naviy maqomga ega bo’lgan kishidir. Qur’on va hadislarida dehqonchilik Allohning qudratini anglash, Unga itoat va ibodat qilish, Uning ne’matlariga shukr qilishning amaliy yo’li sifatida ko’riladi. Dehqon – bu tabiat va insoniyat o’rtasidagi muqaddas bog’liqlikni ta’minlovchi mo’jizaviy kasb



sohibidir. O'rta Osiyo aholisining asosiy qismi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi jamiyatda bu ta'limotlarning amaliy ahamiyati bundan ham ortib boradi va ularni yanada kengroq darajada o'rganish ehtiyoji seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куръони Карим (маънолари таржимаси). – Тошкент: Мовароуннахр, 2019.
2. Саҳиҳи Бухорий. – Бейрут: Дору-л-кутуб-ил-илмия, 2010.
3. Саҳиҳи Муслим. – Бейрут: Дору-л-кутуб-ил-илмия, 2010.
4. Мухтасар Саҳиҳ Муслим (Имом Нававий). – Бейрут: Дору-л-маърифат, 2008.
5. Ибн Косир. Тафсири Куръони Азим. – Бейрут: Дору-л-кутуб-ил-илмия, 2005.
6. Аш-Шахрастоний. Тафсир-ул-Куръон. – Бейрут: Дору-л-фикр, 2001.
7. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – С. 913-915.
8. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.
9. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 100.
10. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.
11. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
12. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
13. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.
14. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
15. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
16. Norova N. Usmon Qo 'chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
17. Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova



- Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.
18. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёровна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси, (PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.
19. Norova N. et al. RETRACTED: About some of Osman Kochqor's translations In Uzar literature //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 538. – С. 05018.
20. Yoriyevna O. N. Yangi o'zbek she'riyatida qo'llangan daraxt obrazlari ifodasida an'ana va novatorlik //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 386-391.
21. Yoriyevna O. R. N. ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA RAMZIY-FLORISTIK OBRAZLAR IFODASI //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 193-199.
22. O'roqova N., Latipov H., Normuratova N. The role of flora and fauna in expressing the artistic view of the universe //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 587. – С. 04013.
23. O'ROQOVA N. O 'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAUNISTIK OBRAZLARINING AN'ANAVIYLIGI //News of the NUUZ. – 2024. – Т. 1. – №. 1.10. 1. – С. 327-328.
24. Yoriyevna O. N. et al. ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA FLORISTIK OBRAZLAR TALQINI //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 2. – №. 24. – С. 26-32.
25. O'roqova Nafosat Yoriyevna. (2024). ZAMONAVIY SHE'RIYATDA LOLA VA LOLAQIZG'ALDOQ OBRAZLARINING RAMZIY IFODALARI. *Hamkor Konferensiyalar*, 1(2), 223–228. Retrieved from <https://academicsbook.com/index.php/konferensiya/article/view/167>
26. O'roqova, N. (2024). SADRIDDIN AYNIIY USLUBIGA DOIR CHIZGILAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 47(47). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/12188
27. O'roqova N. O 'ZBEK SHE'RIYATIDA KAPALAK OBRAZI TALQINI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 47. – №. 47.
28. Yorievna, U. N., & Ikhtiyar's, K. N. (2024). National Portrait in Otkir Hashimov's Stories. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 831–837. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1923>
29. Uroкова, N. (2019). GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES. *Theoretical & Applied Science*, (8), 57-59.
30. Uroкова, N. (2022). MASNAVI IN MODERN UZBEK PROSE. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(3), 63-65.
31. Yorievna, U. N. (2022). Masnavi Genre in Uzbek Classical Poetry: Nature, Genesis, Features. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(10), 67-70.





32. Yoriyevna, U. N. (2023). THE ORIGINALITY AND GENESIS OF ANIMAL SYMBOLISM IN POETRY. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 18, 20-23.
33. Yoriyevna, U. N. (2023). RELATIONSHIPS BETWEEN HUMANS AND ANIMALS. Confrencea, 8(1), 123-126.
34. O'roqova, N. (2022). O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATIDA MASNAVIY JANRI TABIATI, GENEZISI, XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(10), 38–42. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/4041>
35. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
36. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
37. Eshonqulov H. Alisher Navoiy oshiqona g'azallarining badiiy qurilishiga oid o'ziga hosliklar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
38. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
39. Tursunovna S. D., Pirimovich E. H. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER.
40. Eshonqulov H., Sodiqova D. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2021. – Т. 3. – №. 3.
41. 6. Садикова D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №.
42. Tursunovna S. D. Muslihabegim Miskin Appeals to Historical Person-Hazrat Agoyi Buzurg //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 14.
43. Sodikova D. T. GLIMPSES TO FEMININE LITERATURE DURING THE DYNASTY OF BUKHARA EMIRATE: ALL ABOUT A POETESS MUSLIHABEGIM MISKIN AND HER LITERARY HERITAGE //АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР. – 2021. – С. 174-176.
44. Sodikova T. D. Depiction of Romantic Love in Muslihabegim Miskin's Poetry //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
45. Содикова Д. Т. ПРОБЛЕСКИ ЖЕНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ВО ВРЕМЕНА ДИНАСТИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА: ВСЕ О ПОЭТЕССЕ МУСЛИХАБЕГИМ МИСКИН И ЕЕ ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ //ББК 81.632 А43. – С. 174.
46. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetes during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.





47. Садикова D. MUSLIHABEGIM MISKIN-ALISHER NAVOI'S FOLLOWER //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
48. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.
49. Садикова Д. Muslihabegim Miskin–XIX asr Buxoro adabiy muhitining iste'dodli zullisonayn shoirasi //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
50. Садикова D. The Expression of Muslikha begim Miskin's Autobiography in Her Own Literary Collections //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.
51. Sodikova D. MUSLIHABEGIM MISKIN IS A ZULLISONAYN (WHO WROTE HER WORKS IN TWO LANGUAGES) POETESS //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 81-86.
52. Садикова D. The Expression of Muslikha begim Miskin's Autobiography in Her Own Literary Collections //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.
53. Eshankulov H., Sadikova D. Muslihabegim Miskin is a talented bilingual poetess during the literary period of the XIXth century in Bukhara //GOLDEN SCRIPTS OLTIN BITIGLAR. – С. 41.
54. Turaeva, L. O. (2021). Artistic and compositional features of harvest songs. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 629-634.
55. Тўраева, Л. О. (2024). ЎЗБЕК ДЕХҚОНЧИЛИГИДА ТАҚВИМ РАМЗЛАРИ. IMRAS, 7(1), 779-783.
56. Тўраева, Л. О. (2023). ЎЗБЕК ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИДА ДЕХҚОН ОЛҚИШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ИФОДАСИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(24), 22-25.
57. Тўраева, Л. О. (2023). ДЕХҚОНЧИЛИК ҚЎШИҚЛАРИ ЖАНРИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБИЙ АТАМАЛАРНИНГ ЎРНИ. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(22), 66-70.
58. Тўраева, Л. О. (2022, June). Мақолларда деҳқонлар ҳаётининг бадиий талқини. In E Conference Zone (pp. 71-73).
59. Omonovna T. L. Artistic understanding of peasant life in proverbs //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 9. – S. 47-49.
60. TORAYEVA, L. (2023). ЎРИМ ҚЎШИҚЛАРИНИНГ ОБРАЗЛАР ТАРКИБИ ВА БАДИИЙ-КОМПОЗИЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42). НАУЧНЫХ
61. Omonovna, T. L. (2024). A Hymn of Divine Ideas in the Wisdoms of Yassavi. International Journal of Formal Education, 3(4), 34-39.





62. Omonovna, T. L. (2024). A PECULIAR EXPRESSION OF PEASANT APPLAUSE IN FOLKLORE. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(20), 199-204.
63. To'rayeva, L. (2024). O'ZBEK XALQ O'YINLARIDA "BOBODEHQON" KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(20), 234-241.
64. To'rayeva, L. (2024, May). Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasida hayotsevarlik g'oyalari. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 4, pp. 250-259).
65. Rajabova, R. Z. EXPRESSIVENESS OF GENRE CHARACTERS INHERENT IN FOLK RIDDLES IN LITERARY RIDDLES.
66. Zaripovich, R. D., Matchonboyevich, S. S. A., Aminbayevna, R. Z. S., & Zaripovna, R. R. N. (2025). Belief Systems of the Uzbek People: Shamans and Bakshis. *Journal of Chemical Health Risks*, 15(6), 3512.
67. Раджабова, Р. З. (2020). PROSE TALES AND THE INFLUENCE OF FOLK TALES ON THEIR WORK. *ФИЛОЛОГИЯ, ЛИНГВИСТИКА, ЖУРНАЛИСТИКА: АКТУАЛЬНЫЕ*, 9.
68. Rajabova, R. N. Z. (2020). A LITERARY RIDDLE FROM A FOLK RIDDLE. In *European Scientific Conference* (pp. 139-141).

